

MUSIQA TO'GARAK MASHG'ULOTLARINING XUSUSIYATLARI VA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

Xasanova Navbahor Xamraqulovna

*JDPU.Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim
fakulteti Musiqiy ta'lim kafedrası dotsenti*

Safarov Sherali Nurmaxamad o'g'li

Musiqá ta'limi va san'at yo'nalishi 1- kurs magistranti

Annotatsiya: *Maqolada umumta'lim maktablarida musiqiy to'garaklarni tashkil etish, to'garak ishlarining mazmuni va yoshlarning musiqiy tarbiyasini rivojlantirishga oid ko'rsatmalar berilgan. Shuningdek, bugungi kunda musiqá ta'limi jarayonida o'quvchilarda musiqá san'atiga nisbatan qiziqish va havaslarining ortib borishi va bu san'atning yoshlar ma'naviy kamolotidagi ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *musiqá, musiqiy tarbiya, to'garak, ansambl, orkestr, xor, yakka cholg'u, raqs, lapar, yalla, terma, maqom, badiiy havaskorlik.*

Sinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi, o'quvchilarni, iloji boricha, ko'proq ommaviy va to'garak ishlariga jalb etib, ularni dunyoqarashini har tomonlama rivojlantirish, badiiy didini o'stirish, tabiatga, Ona vatanga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirishdir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda maktablarda musiqá darslaridan tashqari, ommaviy va to'garak ishlari olib boriladi.

Sinfdan tashqari musiqá tarbiyasini ikkita shakli mavjud:

1. Musiqá tarbiyasining ommaviy shakli.
2. Musiqá tarbiyasining to'garak shakli.

Sinfdan tashqari musiqá tarbiyasining ommaviy shaklida bolalarni musiqiy o'quvini tekshiruvdan o'tkazmay, yalpi tarzda jalb etishni taqozo etadi. Bularga, qo'shiq bayramlari, ko'rik-tanlovlar, ijodiy uchrashuvlar, teatr va konsertlarga sayohat, shoir va bastakorlar bilan uchrashuvlar kiradi.

Ammo, bularning har biriga bolalarni yoshi, qiziqishiga qarab, oldindan tayyorlab borilishi kerak. Bu tadbirlarni har birini yuksak badiiy did bilan tashkil etib, amalga oshirish, chinakam badiiy-musiqiy bayram ruhini kasb etish lozim.

Musiqá o'qituvchisining ommaviy ishlar rejasi, maktab ma'muriyati tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Ommaviy, musiqiy ishlar rejasi, musiqá o'qituvchisi va maktab tarbiyaviy va ma'naviy ishlar mudiri, maktab yetakchisi bilan hamkorlikda, o'quvchilarning yoshiga,

qiziqishiga, bayramlar, uchrashuvlar, tadbirlarini hisobga olgan holda tuziladi. Bunda o'quvchilarning musiqiy o'quvi, qobiliyati hisobga olinadi.

Ommaviy musiqa mashg'ulotlarining har biri, aniq ishlab chiqilgan reja, asosida amalga oshirilmog'i lozim. Bunda har bir mashg'ulot turiga qarab, uning asosiy maqsadi, xususiyati, repertuar mazmuni, maktab imkoniyatlari, taklif etilgan mehmonlar hisobga olinib, o'quvchilarni jalb etiladi.

To'garak ishlarini esa, ish rejasini musiqa o'qituvchisining o'zi, o'z xohishi va imkoniyatlariga qarab, mustaqil tarzda tuzadi. O'qituvchi to'garak ishlariga o'quvchilarni musiqiy qobiliyati, xohishi-istagi, qiziqishi, ovozigacha qarab tanlab oladi va turli xil to'garaklar tuzadi.

Haftasiga 2-3 bor to'garakni guruhlariga bo'lib ishlaydi. To'garak ishlarining asosi musiqa darsidir. To'garak ishlariga qobiliyatli, qiziquvchan, musiqa darslarida aktiv qatnashadigan o'quvchilar tanlab olinadi. Darsda har bir bolaning layoqati, qiziqishi hisobga olinib, u yoki bu musiqa to'garagiga jalb etiladi. To'garak faoliyati aktivlashtiradigan narsa bu maktab sahnasidir.

O'quvchilar tadbirlarda, qo'shiqlar, raqslar ijro etib, maktab jamoasi oldida e'tibor qozonib, nohiya, shahar, respublika ko'rik-tanlovlarida qatnashadilar. Bu ularni o'z mehnatidan zavqlanishi his tuyg'ularni Ona-Vatanga muhabbat, musiqa san'atiga hurmat, do'stlari orasida mehr-muhabbat tuyg'usini oshirib boradi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda o'qituvchi o'z imkoniyatlariga qarab, turli to'garaklar tuzish mumkin:

1. Xor to'garagi.
2. Ashula va raqs ansambllari.
3. Cholg'uchilar ansamblli (dutorchilar, rubobchilar, doirachilar).
4. Raqs ansambli.
5. Yakkaxon qo'shiqchilar.

Maktabdan tashqari musiqaviy tarbiya shakliga bolalar musiqa maktablari, bolalar ijodiyot markazlari, o'quvchilar saroylari, bolalar teatrlari, muzeylar kiradi. Mazkur muassasalarga qatnashadigan bolalar ham o'qituvchi nazoratida bo'lib, maktab musiqa hayotiga ularning aktiv qatnashuvlarini ta'min etish lozim. Maktab hayotida musiqa o'qituvchisining o'rni beqiyosdir.

Musiqa darslaridan tashqari, zamon talabiga mos ravishda tadbirlar tayyorlab, o'quvchilarda san'atga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishi lozim. Cholg'uchilik to'garaklari O'zbek xalq musiqasi hamda milliy musiqamizni anglashdagi eng muhim vositalardan biri o'zbek cholg'ular bo'lib, "cholg'uchilik" to'garaklari ushbu vazifani bajarishda yoshlarni to'g'ri yo'naltiruvchi omillardan biri sanaladi. Yakka cholg'u ijrochiligi to'garaklari musiqani o'rganishga intilayotgan bolalarga bilim olish imkoniyatini beradi.

Maktab to'garagiga yoshi va musiqa tayyorgarligi saviyasidan qat'iy nazar, xohlagan bola kelishi mumkin va bu maktab musiqa hayotining barcha shakllarining samaradorligini ko'tarishiga ko'maklashadi.

Maktabdan tashqari to'garaklardagi jamoa tarzida tashkil etilgan to'garaklardagi bolalar soni 15-20 tadan, boshqa turdagi to'garaklarda birinchi yili o'ntadan, ikkinchi yili sakkiztadan kam bo'lmasligi nazarda tutiladi.

To'garak mashg'ulotlari uchun birinchi o'quv yili 4 akademik soat (1 akademik soat 45 minutga to'g'ri keladi) ajratilsa, ikkinchi va keyingi yillar haftasiga 6 akademik soatdan ajratiladi.

Mashg'ulotlar albatta darsdan keyin, o'quv-tarbiyaviy ishlarga halaqit bermaydigan vaqtga mo'ljallangan bo'lishi lozim. Mashg'ulotning birinchi yig'inida ansambl rahbari tanlab olingan havaskor - qatnashchi o'quvchilar bilan ansamblning maqsadi, vazifasi, vaqti, mashg'ulotlar jarayoni mazmuni, bolalarning vazifalari, rioya qilinishi shart bo'lgan qoidalar, tartib intizom, rejim haqida gaplashib oladi. Ansambl tarkibini shakllantirish ishlari bajariladi. Ansamblda albatta ikkita doirachi (1 tasi doimiy zahirada bo'lishi ko'zda tutiladi) 1 ta yoki 2 ta dutorchi, 1 ta afg'on rubobini qo'shish ham mumkin. Shundan so'ng rahbar birinchi mashg'ulotda qatnashchilarga o'zlari chalayotgan rubob (dutor, avg'on rubobi, doira) cholg'usi haqida tushuncha beradi.

Unda o'zbek milliy cholg'ulari, uning tarkibidagi rubob cholg'usining evalyusion taraqqiyoti, bugungi kundagi musiqa madaniyatimizda tutgan o'rni va ahamiyati, mashhur ijrochilari haqida ma'lumot beradi. Shundan so'ng rubobni tuzilishi bilan tanishtiradi.

Hozirgi kunda barcha umumta'lim maktablari, bolalar musiqa maktablari va ixtisoslashtirgan san'at maktablari, bolalar bog'chalari va yoshlarning jamoatchilikni o'tmish qadryatlarimiz ruhida tarbiyalash, ta'lim-tarbiya jarayonini asosiy masalalaridan biri deb qaralmoqda. Umumta'lim maktablari fanlarini tarixiy dalillar bilan bog'liq holda o'qitish bolalar tarbiyasiing yanada takomillashuvi, uning bolalar qiziqishiga mos shakl va metodlarni yaratilishidagi misli ko'rilmagan ajoyib tashabbuskorlikning quloq yozishiga olib keladi.

Musiqa san'ati hamma zamonlarda ham qudratli tarbiya vositasi bo'lib qolganligi va bugungi kunda ham uning tarbiyaviy ta'sir imkoniyatlari tobora ortib borayotganligi ayni haqiqatdir. Musiqa darsi - boshlang'ich maktabda musiqa tarbiyasining bazasidir.

Ta'limga g'ayrat bilan yondashish, psixologik- pedagogic tadqiqotlarni istiqbolli yo'nalishini aniqlab beradi, bu yo'nalishlar uzliksiz ta'lim sistemasiga qaratilgan bo'lib, o'quv tarbiyaviy jarayonni yangi mazmun va information texnologiyalarni yaratishga va psixologik ta'minlashga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda bir necha ming yillardan buyon xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan, musiqa merosimiz bo'lmish mumtoz musiqa asarlarimiz, maqomlar, marosim qo'shiqlari, doston qo'shiqlari, yor-yorlar, o'lanlar va boshqa folklor asarlarini milliy qadryatlarimiz sifatida ardoqlab, ularning kelib chiqishi tarixi, qaysi regionga xosligi va ijro uslublari ularni yaratgan va ijro etgan mashxur shaxslar, qadimiy cholg'u so'zlarimiz, ularning paydo bo'lishi takomillashishi, raqs san'ati, dostonchilik va boshqa musiqiy bilimlarni yosh avlod ongiga singdirish ularni avvalo vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek ulug' maqsad uchun xizmat qilsa, ikkinchidan, yosh avlodning o'tmish tariximiz davomida yuz bergan voqea va hodisalardan xabardor bo'lishga undan to'g'ri xulosa chiqarishga, saboq olishga undaydi, uchinchidan, yosh avlodni ota bobolarimiz musiqiy merosidan bahramand bo'lishga, ulardan estetik zavq olishga, bu musiqiy asarlar mazmunidan to'g'ri xulosa chiqarishga, shu orqali ularning nafosatini tarbiyalash, kamolga erishishimiz lozim.

Zero xalqning ruhi, dunyoqarashi va turmush tarzini ifoda etadigan milliy ma'naviyatga munosabat, uni zamon talablari asosida rivojlantirish, yosh avlod dunyoqarashi va tafakkurini zamon taraqqiyotiga mos xolda, milliy ma'naviyat, milliy madaniyat, milliy mafkura, milliy me'ros tushunchalarini yosh avlodga to'g'ri tushuntirish, ularni ushbu tushunchalar mohiyatini va mazmunini chuqur anglab etish va o'zlarining hayotlari davomida bu tushunchalarga og'ishmay amal qilish hamda huddi shu tushunchalarni o'zlaridan keyingi nasllarga yetkazish insoniy fazilat ekanligini anglashdan iboratdir.

Hozirgi kunda kelajagimiz vorislari bo'lmish yosh avlodni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqa mashg'ulotlarini va to'garak ishlarini samaradorligi oshib bormoqda va bu borada qilinayotgan ishlar tahsinga loyiq deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O'.2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori. www.lex.uz.
3. Mamirov Q. Musiqa vositasida yoshlarni axloqiy-estetik ma'naviyat ruhida tarbiyalash //Musiqiy ta'lim va ma'naviyat. Resp. Ilmiy-nazariy konf.mat.to'plami. – T.: Nizomiy nom. TDPU, 1998. – 3-5- b.
4. Karomatov F.M. Xalq muzikasi //O'zbek muzikasi tarixi. Tuzuvchi: T.Ye.Solomonova. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – 27 – 34-b.